

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 35 (1634), 2026-yil 20-fevral, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON PREZIDENTI TINCHLIK KENGASHINING G‘AZO SEKTORI BO‘YICHA FAOLIYATINING USTUVOR YO‘NALISHLARINI BELGILAB BERDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan 17-19-fevral kunlari Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etish uchun amaliy tashrif bilan Vashington shahrida bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari 19-fevral kuni Vashington shahrida Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etdi.

AQSH Prezidenti Donald Tramp raisligida o‘tkazilgan tadbirda Ozarbayjon, Qozog‘iston, Bahrayn, Indoneziya, Argentina, Paragvay, Ruminiya, Misr, Qatar, Pokiston, Vengriya, Albaniya, Armaniston, Vyetnam, Kambodja, BAA, Turkiya, Kuvayt, Saudiya Arabistoni, Isroil, Marokash va boshqa davlatlar delegatsiyalari rahbarlari ham qatnashdi.

G‘azo sektorini qayta tiklash va gumanitar yordam ko‘rsatish, shuningdek, mintaqada tinchlik hamda barqarorlikni ta‘minlash masalalari muhokama qilindi.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida dastlabki sammitni chaqirgani uchun Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti, Tinchlik kengashi raisi Donald Trampga minnatdorlik bildirdi.

O‘zbekiston Tinchlik kengashini tuzish bo‘yicha tinchliksevar tashabbusni qo‘llab-

quvvatlagani va uni muvaffaqiyatli ro‘yobga chiqarishda amaliy ishtirok etishini qat‘iy tasdiqlagani ta‘kidlandi.

— Ishonchim komil, kengash ishi G‘azo mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy qayta tiklash uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

G‘azoning har qanday tashqi boshqaruv mexanizmi sektor aholisining so‘zsiz ichki qo‘llab-quvvatlashiga tayanishi lozimligi ta‘kidlandi.

Barcha tomonlarning muvofiqlashtirilgan sa‘y-harakatlari G‘azoni tez fursatda qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, mojarodan keyingi jarayonlarni barqarorlashtirishga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston ushbu hududda turar joylar, bolalar bog‘chalari, maktab va kasalxonalar barpo etishga imkon qadar hissa qo‘shishga tayyorligini qayd etdi.

— Bizning uchrashuvimiz xalqaro

birdamlik, tinchliksevarlik va Yaqin Sharqdagi vaziyatni yaxshilashga bo‘lgan umumiy intilishimizning yorqin ifodasidir. Biz Yangi G‘azoni — iqtisodiyoti farovon, aholi uchun munosib turmush sharoitlariga ega bo‘lgan mintaqani barpo etish uchun ushbu tarixiy imkoniyatdan foydalanishimiz zarur, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Tadbirda boshqa xorijiy mamlakatlarning davlat, hukumat va tashqi siyosiy idoralari rahbarlari ham so‘zga chiqdilar.

Yig‘ilish yakunida Tinchlik kengashi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risidagi deklaratsiya imzolandi.

Shu bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Amerika Qo‘shma Shtatlarga amaliy tashrifi yakunlandi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOEYEVNING TINCHLIK KENGASHINING BIRINCHI SAMMITIDAGI NUTQI

Muhtaram Donald Tramp Janobi Oliylari!

Hurmatli sammit ishtirokchilari! Avvalambor, Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp Janobi Oliylariga Tinchlik Kengashining inauguratsiya majlisini tashkil etgani uchun chin dildan minnatdorchilik izhor etaman.

Hech shubhasiz, bugungi sammit bu Prezident Trampning siyosiy irodasi va pragmatizmi natijasidir.

O‘zbekiston Tinchlik kengashini tuzish bo‘yicha tinchliksevar tashabbusni qo‘llab-quvvatladi va uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi borasida o‘zining amaliy ishtirokini qat‘iy bayon etdi.

Ishonchim komil, Kengash ishi G‘azo mintaqasini iqtisodiy va ijtimoiy qayta tiklash uchun qulay sharoit yaratishga imkon beradi.

Shu bilan birga, G‘azoning har qanday tashqi boshqaruv mexanizmi sektor aholisining so‘zsiz ichki qo‘llab-quvvatlashiga tayanishi lozim.

Barcha tomonlarning muvofiqlashtirilgan sa‘y-harakatlari G‘azoni tez fursatda qayta tiklash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, mojarodan keyingi jarayonlarni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Ta‘kidlab aytamanki, O‘zbekiston ushbu hududda turar joylar, bolalar bog‘chalari, maktab va kasalxonalar barpo

etishga imkon qadar hissa qo‘shishga tayyor.

Hurmatli do‘stlar! Ushbu sammit Donald Tramp nomidagi Tinchlik institutida o‘tkazilayotganida ramziy ma‘no mujassam.

Bizning uchrashuvimiz xalqaro birdamlik, tinchliksevarlik va Yaqin Sharqdagi vaziyatni

yaxshilashga bo‘lgan umumiy intilishimizning yorqin ifodasidir.

Biz Yangi G‘azoni — iqtisodiyoti farovon, aholi uchun munosib turmush sharoitlariga ega bo‘lgan mintaqani barpo etish uchun ushbu tarixiy imkoniyatdan foydalanishimiz zarur.

E‘tiboringiz uchun rahmat.

O‘ZBEKISTON – AQSH: MULOQOT VA SHERIKLIK UCHUN ISHONCHLI HAMKOR



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan Vashington shahrida bo‘ldi va Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etdi. Tashrif doirasida strategik loyihalar taqdimoti, AQSHning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari rahbarlari ishtirokida uchrashuvlar hamda qator ishbilarmonlik tadbirlari bo‘lib o‘tdi.

► Davomi 2-betda

HAR BIR BAND, BO‘LIM ANIQ MAQSAD VA NATIJAGA ASOSLANGAN

Aholining turmushi sifati, farovonligi va daromadini oshirish mamlakatdagi islohotlarning asosiy maqsadidir. So‘nggi yillarda bu yo‘nalishdagi sa‘y-harakatlar sezilarli natija ko‘rsatmoqda.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan davlat organlari faoliyatidagi ustuvor tamoyil inson manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan. Bunday boshqaruv fuqarolarning yillar davomida to‘planib qolgan muammolarini qisqa muddatda manzilli hal etish uchun yaxlit tizimni shakllantirish imkonini berdi. Natijada eng olis va borish qiyin hududlar infratuzilmasi ham yaxshilandi. Sanoat tarmoqlari kengaydi. Zamonaviy texnologiyalarga asoslangan korxonalar soni ortmoqda.

► Davomi 3-betda





Munosabat



Dolzarb mavzu

O‘ZBEKISTON – AQSH: MULOQOT VA SHERIKLIK UCHUN ISHONCHLI HAMKOR

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 15-17-may kunlari AQSHga ilk rasmiy tashrfi strategik sheriklikning yangi davrini boshlab berdi va uzoq muddatli hamkorlik uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qildi. 2023-yil 16-20-sentabr kunlari Nyu-Yorkka amaliy tashrif esa “C5+1” formatidagi birinchi sammit munosabati bilan belgilanib, mintaqaviy hamkorlikning yangi bosqichini mustahkamladi.

O‘tgan yil sentabr oyi avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va AQSH yetakchisi o‘rtasidagi telefon muloqoti butun jahon siyosatchilari hamda xalqaro ekspertlarning diqqati markazida bo‘ldi. Ana shu muloqot chog‘ida AQSH rahbari O‘zbekistondagi islohotlarni yuqori baholab, ortga qaytmas jarayon deya e’tirof etdi. Bu nafaqat e’tirof, balki tom ma’noda mamlakatimizdagi bunyodkorlik, o‘zgarish va demokratik jarayonlarni tan olishdir.

2025-yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida O‘zbekiston va AQSH

Prezidentlarining uchrashuvi tarixiy ahamiyat kasb etdi. Davlatimiz rahbarining o‘sha yili noyabrda Vashingtonga amaliy tashrfi sheriklikka qo‘shimcha sur‘at bag‘ishladi.

Hamkorlik deklarativ bosqichdan aniq tashabbuslar, kelishuvlar va qo‘shma strategiyalar bosqichiga o‘tdi. Iqtisodiyot siyosiy muloqotning tayanch konstruksiyasiga aylandi. Raqamlar ham buni yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, o‘tgan yili tovar ayirboshlash hajmi 1 milliard dollardan oshdi. Eksport 291,7 million dollarga yetdi. Mamlakatimizda AQSH kapitali ishtirokidagi 340 korxona faoliyat yuritmoqda. Shularning 195 tasi 100 foiz AQSH investitsiyasi asosida ishlayapti.

Shu bilan birga, madaniy-gumanitar sohalarda ham hamkorlik mustahkamlanmoqda. Jumladan, Toshkent — Siel, Buxoro — Santa-fe, Zarafshon — Klinton shaharlari o‘rtasida hududlararo aloqalar o‘rnatildi.

Ahamiyatlisi, ayni paytda O‘zbekiston ko‘p tomonlama tuzilmalardagi pozitsiyalarini ham faol mustahkamlab bormoqda. Mazkur siyosatning ramziy

ifodasi sifatida rasmiy Toshkent Tinchlik kengashini tuzish tashabbusiga qo‘shildi.

2026-yil yanvarda Shveysariyaning Davos shahrida Prezidentimiz mazkur kengash nizomini imzolagach, O‘zbekiston yangi xalqaro platformaning ta’sischilaridan biri bo‘ldi.

AQSH Prezidenti ilgari surgan va BMT maydonida qo‘llab-quvvatlangan bu tashabbus mojarolar xavfini kamaytirish hamda jabr ko‘rgan hududlar, jumladan, G‘azo mintaqasini qayta tiklashga qaratilgan.

Shu tariqa O‘zbekiston ishonchli tashqi siyosiy strategiyasi asosida keng ko‘lamli ikki tomonlama hamkorlikdan yangi global mexanizmlarni shakllantirishgacha bo‘lgan jarayonda faol ishtirok etmoqda.

Eng muhimi, bugun O‘zbekiston yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash, iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, transport va energetika yo‘laklarini rivojlantirish, shuningdek, global beqarorlik sharoitida savdo, investitsiya aloqalarini kengaytirish, raqobatbardosh logistika yo‘nalishlarini shakllantirish va madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan tashabbuslarni ilgari surib kelmog‘da.

Bunday yondashuv O‘zbekistonni muloqot va sheriklik uchun ishonchli hamkorga aylantiradi. Davlatimiz rahbarining AQSHga navbatdagi tashrfi fikrimiz tasdig‘idir. Qisqasi, mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishda muhim bosqich vazifasini bajaradi.

Shokir G‘AFFOROV,
tarix fanlari doktori, professor

OQIBATDAN SABABLARGA KO‘CHAYOTGAN KURASH TAMOYILI

Zamon taraqqiy etishda davom etar ekan, aholi xavfsizligi hamisha ustuvor ahamiyat kasb etadi. Zero, har qanday jamiyatning o‘sishi, rivojlanishi, avvalo, fuqarolarning xavfsizligi, davlatga ishonchi bilan o‘lchanadi. Ayni maqsadda yurtimizda jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarlarning oldini olishga eng ustuvor masalalardan biri sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Soha izchil takomillashtirilib, samaradorlik yaxshilanmoqda. Xususan, keyingi yillarda aholi tinch, osoyishta hayot kechirishi uchun huquqiy, tashkiliy mexanizmlar tubdan qayta ko‘rib chiqildi. Asosiysi, so‘nggi yillarda jamoat xavfsizligi masalasi tizimli davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mahallaning o‘mi mustahkamladi, profilaktikaning yangi yondashuvlari joriy etildi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini tashkil etishda sezilarli o‘zgarishlar qilindi. Jinoyatchilikka qarshi kurashish mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarilib, jinoyat oqibati bilan kurashish emas, uning oldini olish tamoyiliga o‘tdi.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 27-yanvar kuni Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish hamda jamoat xavfsizligini samarali ta’minlash bo‘yicha namunaviy amaliyotni yaratish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ayni masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Prezidentimizning 2026-yil 5-yanvardagi “Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo‘nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ham aynan

mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish va jilovlash bo‘yicha yangi mexanizmlarni joriy etish uchun qabul qilingan edi. Ushbu qaror bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi va jamoat xavfsizligini ta’minlovchi mas’ul idora hamda massasalar zimmasiga qator vazifalar yuklatildi.

Hujjat ijrosini ta’minlash maqsadida boshqa qator mas’ul tashkilotlar qatori Toshkent davlat yuridik universiteti tashabbusi bilan poytaxt mahalla fuqarolar yig‘inlarida xavfsiz muhitni yaratish va jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan ilmiy-tahliliy o‘rganishlar olib borilmoqda.

O‘rganishlar jarayonida mahallalarning tashkiliy-huquqiy faoliyati, “mahalla yettilligi”ning ish mexanizmlari, aholi soni va ijtimoiy-demografik holati, bandlik darajasi, hududda sodir etilayotgan jinoyatlar va ularning kelib chiqish omillari tahlil qilinyapti. Jarayonda ma’muriy nazorat ostidagi shaxslar, jazoni ijro etish massasalaridan qaytgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuvi hamda bandligi masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Tahlillar natijasida mahallalarda o‘g‘rilik, firibgarlik va maishiy zo‘ravonlik holatlari sodir etilishida ishsizlik, ijtimoiy muammolar hamda kuzatuv kameralarining texnik nosozligi sabab bo‘layotgani aniqlandi. Hududda kutubxona va ma’rifiy maskanlar yo‘qligi, ta’lim muassasalari yetishmasligi hamda alkogol va giyohvandlikka ruju qo‘ygan shaxslar bilan ishlashda muammolar mavjudligi qayd etilmoqda.

Bunday holatlarning oldini olish maqsadida mahallalar faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Jumladan, huquqiy targ‘ibot tadbirlarini kuchaytirish, aholini ish bilan ta’minlash choralarini kengaytirish, kutubxonalar tashkil etish, kuzatuv kameralari o‘rnatish va ta’mirlash, oilaviy nizolarni hal etishda mediatorlarni jalb qilish hamda mahalla va aholi o‘rtasida samarali aloqa mexanizmlarini rivojlantirish zarur. O‘rganish yakunlari bo‘yicha

aniqlangan muammo, sabablar situatsion markazga ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqish uchun taqdim etilmoqda.

Shuningdek, mahallalar, ta’lim maskanlarida bepul yuridik yordam, “Yoshlar o‘rtasida jinoyatchilikning oldini olish va jinoyat sodir etishning og‘ir oqibatlari” mavzusida huquqiy savodxonlik tadbirlari o‘tkazilmoqda. Eng muhimi, bepul yuridik yordam tadbirlari davomida fuqarolarga advokatlik yordami, masalaning huquqiy yechimlari batafsil tushuntirilib, amaldagi qonunchilik normalari asosida muammolarni hal etish yo‘llari ko‘rsatilyapti.

Yana bir e’tiborli jihat. Tadbirlarda ishtirokchilarga internet tarmog‘idan foydalanish, huquqiy axborot olishda kiberfiribgarlik qurboni bo‘lib qolmasligi uchun zarur ko‘rsatmalar berilmoqda. Shuningdek, oilaviy kelishmovchiliklarning oldini olish, muammolarni murosali yo‘l bilan hal etish bo‘yicha tavsiyalar berilib, bilim va amaliy tajribani oshirishga qaratilgan davra subhatlari tashkil etilmoqda. Aholi murojaatlari o‘rganilib, dolzarb huquqiy masalalar yuzasidan individual yondashuv asosida maslahatlar berilyapti.

Yashnobod va Yangiyo‘l tumanlaridagi situatsion markazda universitet tayanch doktorantlari hamda professor-o‘qituvchilarining doimiy faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Situatsion markazda mahallalar kesimida kunlik amalga oshirilgan ishtar, statistik ma’lumotlar ilmiy guruhlariga tahlil va tadqiqotda foydalanish uchun tezkor yetkazilmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, jamoat xavfsizligini ta’minlash va “Xavfsiz shahar” muhitini yaratish yo‘lidagi bunday sa’y-harakatlar, shubhasiz, mamlakatimiz farovonligi hamda yurtodshlarimizning turmush tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Dildora BOZOROVA,
yuridik fanlar doktori, professor



Sharh

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojida transport tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, samarali transport tizimi ichki bozorda xomashyo va mahsulot harakatlarini optimallashtiradi, tashqi savdoda mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirib, jahon bozoriga integratsiya jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini beradi. Shu bois, taraqqiyot sari intilgan har bir davlat transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirishga jiddiy e’tibor qaratadi.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda milliy taraqqiyot dasturlarida transport-kommunikatsiya va tranzit salohiyatini oshirish, tashishlar xavfsizligini ta’minlash, transport sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar qilinmoqda. Natijada tranzit va yo‘lovchi tashish, eksport va investitsiya hajmi o‘sib bormoqda. Misol uchun, birgina temir yo‘l sohasini olaylik. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotiga ko‘ra, o‘tgan yil davomida temir yo‘l transportida 10,5 million yo‘lovchi tashilgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yildagiga nisbatan 0,7 million kishiga oshgan. Mazkur davrda temir yo‘l transportidan bir kunda o‘rtacha 28,8 ming yo‘lovchi foydalangan.

Poytaxtimiz jamoat transportida metropolitenning o‘rni juda katta. Metroda yo‘lovchilarga qulayliklarni oshirish maqsadida yangi yo‘nalishlar qurilmoqda. Toshkentda yer usti metrosi barpo etildi. Bu yangi yo‘nalishlar poytaxtimizning Yunusobod, Yashnobod, Mirobod, Sergeli va Yangiyo‘l tumanlarini bog‘lab, aholining kundalik qatnoviga katta qulaylik yaratdi.

Shuningdek, avtomobil yo‘llari tarmog‘ini kengaytirish, ushbu sohada tranzit va tashishlar hajmini oshirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Avtomobil yo‘llari rekonstruksiya qilinib, yangi yo‘llar qurilyapti. Hududlarda yo‘lbo‘yi infratuzilmasi rivojlantirilib, savdo va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari kengaymoqda.

Shu bilan birga, transportda tashuvlarga qo‘yiladigan talablar va shartlarga amal qilinishi borasida tashuvchilar mas’uliyatini kuchaytirish, ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqishda korruptsiyaga barham berish, transport sohasidagi nazorat samaradorligini yanada oshirish bugungi kunning muhim

talabiga aylanmoqda. Shu maqsadda ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonunchilikni qayta ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keldi.

Prezidentimiz shu yil 5-fevralda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga transport xizmati ko‘rsatishni tashkil etish tizimini takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun bu borada muhim huquqiy asos bo‘ldi.

Mazkur qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi, “Tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish to‘g‘risida”gi, “Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi hamda “Transport to‘g‘risida”gi qonunlarga transport xizmati ko‘rsatishni tashkil etish tizimini takomillashtirish hamda tashuvlar samaradorligi va sifatini oshirish orqali yuk hamda yo‘lovchilar tashishdagi xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Xususan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga temir yo‘l transportida va metropolitenida harakat va tashish xavfsizligi talablarini hamda yo‘lovchilarni, bagaj va yuk bagajini tashish qoidalarini buzganlik uchun jarima solishga sabab bo‘lishini belgilovchi qo‘shimchalar kiritildi.

So‘nggi yillarda transport tizimi faoliyati tubdan takomillashtirish, aholi uchun qulaylik va imkoniyatlar kengayib borayotgani natijasida metropoliten, yo‘lovchi poyezdlar va avtomobil transportida yo‘lovchilar soni ortmoqda.

Transport tarmoqlarining inson hayoti va iqtisodiyot rivojida o‘rni shu taxlit uluksiz oshib borayotgani, o‘z navbatida, yo‘lovchi va yuklarni manziliga vaqtida xavfsiz yetkazish, ularga xizmatlar ko‘rsatish jarayonining uluksizligi, sifatligi, barqarorligi va ishonchligini ta’minlash lozimligini ko‘rsatmoqda. Ammo bu boradagi qator muammolar transport



tizimi rivojiga to‘siq bo‘layotgani ham sir emas.

— Misol uchun, temir yo‘l tashishlari xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kamchilik va huquqbuzarliklar aniqlanganda, Transport nazorati inspeksiya yuridik shaxsa nisbatan faqatgina ko‘rsatma berish bilan cheklanardi, — deydi Oliy Majlis Senati mudofaa va xavfsizlik masalalari qo‘mitasi raisi Qutbiddin Burhonov. — Oqibatda mas’ul xodimlar o‘z vazifalarini

bajarishda mas’uliyatsizlik va loqaydlikka yo‘l qo‘yardi. Bu esa tashishlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qoida va talablarning qo‘pol ravishda buzilishiga olib kelardi. Ana shunday omillar ta’sirida temir yo‘l transporti hamda metropolitenida 2024-yilda harakat va tashishlar xavfsizligi talablarining qo‘pol buzilishi bilan bog‘liq 130 ta hodisa sodir etilgan. Oqibatda harakatdagi tarkib va temir yo‘l infratuzilmasiga qariyb 4 milliard so‘m moddiy zarar yetkazilgan.

Shuningdek, avtomobil yo‘llarining temir yo‘llar bilan tartibga solinmagan kesishmalarida poyezdlar hamda avtotransport vositalari ishtirokida birgina 2024-yilda 38 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan va buning oqibatida 11 kishi halok bo‘lgan. Shu bois, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks yangi modda bilan to‘ldirilib, tashishlar xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha qoida va talablarni buzganlik mansabdor shaxslarga va xizmatchilarga bazaviy hisoblash miqdorining o‘n baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘lishi belgilandi.

Bugungi kunda hududlararo bordi-keldilar tobora rivojlanmoqda. Yaqinlarimiz ahvolidan xabar olish yoki sayohat maqsadida olis manzillarga otlar ekanmiz, arzon, qulay va manzilga tez yetkazadigan transportdan foydalanishga intilamiz. Ammo ba’zida yo‘lovchi tashiyotgan mashina yoki avtobus haydovchisi uzoq manzildan tunda kelib, 2-3 soat dam olib yana ortiga qaytishi bilan bog‘liq holatlar uchrab turadi. Haydovchining bunday

mas’uliyatsizligi va beparvoligi yo‘l-transport hodisasiga sabab bo‘lishi mumkin. Buni quyidagi faktlar ham isbotlaydi. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda haydovchilar tomonidan mehnat va dam olish rejimiga rioya etilmagani sababli yo‘llarda uxlab qolish oqibatida

351 ta yo‘l-transport hodisasi sodir etilgan va buning oqibatida 189 kishi halok bo‘lgan, 285 nafari esa jarohatlangan.

Bunday baxtsiz hodisalarning oldini olish maqsadida respublikamiz hududida ish vaqti davomiylik 9 soatdan ortiq yoki yo‘nalish masofasi 400 kilometr va undan ortiq masofaga yo‘lovchi va yuklarni tashishda haydovchilarning mehnat va dam olish rejimi Transport nazorati inspeksiya tomonidan nazorat qilib borilishi belgilandi.

Shuningdek, shaharlararo va xalqaro yo‘lovchi tashishni amalga oshirayotgan avtobuslarda taxograf, ya’ni transport vositalariga o‘rnatiladigan nazorat qurilmasi bo‘lib, haydovchilarning ish vaqti, dam olish vaqti, tezlik va masofani yozib boradi. Ushbu qurilma haydovchilarning mehnat va dam olish tartibiga rioya qilinishi ta’minlash va xavfsizlikni oshirish uchun mo‘ljallangan, uni o‘chirgan holda transportni boshqarganlik uchun javobgarlik mavjud.

Biroq ushbu qurilmadagi ma’lumotlarga asosan haydovchining mehnat va dam olish rejimiga bo‘ysunmagani yuzasidan javobgarlik belgilanmagan edi. Bunday kamchiliklar baxtsiz hodisalarga sabab bo‘lishi, bundan ko‘plab yo‘lovchilar ham jabrlanishi sir emas.

Endilikda qonun bilan xalqaro va shaharlararo avtomobil tashuvlarini amalga oshirishda haydovchilarning mehnat va dam olish rejimini buzganligi bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘lishi belgilandi.

Qonunchilikdagi ayrim moddalarda ma’muriy jazo chorasi qat’iy sanksiyada bo‘lmisligi jazo tayinlashda mansabdor shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarni ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, tanish-bilishchilik va korruptsiyaviy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, qonun bilan bir xil toifadagi huquqbuzarliklar uchun har xil miqdorda jarima qo‘llanilishining oldini olish, huquqbuzarlarning qonun oldida tengligini ta’minlash maqsadida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga yo‘lovchilarni chiptasiz tashiganklik, tashuvchining o‘z fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish bo‘yicha majburiyatini bajarmaganlik uchun jarimaning aniq miqdori belgilab qo‘yildi.

Ushbu qonun transport xizmati ko‘rsatishni tashkil etish tizimini takomillashtirish, tashuvlar samaradorligi va sifatini oshirish orqali yuk hamda yo‘lovchilar tashishdagi xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri





HAR BIR BAND, BO'LIM

ANIQ MAQSAD VA NATIJAGA ASOSLANGAN



Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Muhimi, aholi bandligini ta'minlash, mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasb-hunarlarni egallash uchun zarur sharoitlar shahar va tuman markazlari bilan birga eng chekka hududlarda ham yaratilmoqda.

Barqaror rivojlanishni ta'minlash zamonaviy iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida ustuvor yo'nalishlardan. Shu bois, jarayonda strategik rejalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga yo'llagan Murojaatnomasida ilgari surilgan taklifga muvofiq, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan konseptual hujjat “O'zbekiston — 2030” strategiyasi qayta ko'rib chiqildi.

Uning maqsadli ko'rsatkichlari, hozirgi o'sish sur'atlari chuqur tahlil qilindi va jahondagi vaziyatni inobatga olgan holda yangilandi. Hujjat loyihasining jamoatchilik muhokamasiga qo'yilgani, ayniqsa, alohida ahamiyat kasb etdi. Uni takomillashtirishda fuqarolardan kelib tushgan takliflar ham inobatga olindi. Bu esa strategiyani tom ma'noda xalqchil hujjat deb atash imkonini beradi. Hujjatning Prezidentimiz tomonidan tasdiqlanishi yakunlovchi bosqich bo'ldi. Aynan shu voqea 16-fevral kuni o'tkazilgan taqdimotning markaziy nuqtasi bo'ldi.

Shu kuni davlatimiz rahbariga eng ustuvor islohotlar dasturlari hamda “O'zbekiston — 2030” strategiyasini 2026-yilda amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi loyihalari yuzasidan axborot berildi. Mazkur loyihalar ilg'or xorijiy tajribaga tayanib, mutlaqo yangi yondashuv asosida ishlab chiqildi. Ularda davlat siyosatining joriy yildagi asosiy yo'nalishlari va maqsadli ko'rsatkichlari hamda ularni amalga oshirishning aniq mexanizmlari belgilanmoqda. Dasturlar davlatimiz rahbarining Oliy Majlis va xalqimizga Murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbuslar hamda 2026-yil uchun eng ustuvor islohotlarni qamrab olgan.

Ahamiyatli, bu jarayonda “hujjat ishlab chiqishdan natijaga erishish” tamoyiliga o'tilmogda. Har bir tashabbusni amalga oshirish mexanizmlari, yil yakunida iro natijalari bo'yicha KPI belgilangan. Dasturlar to'g'ridan to'g'ri amal qilish mexanizmlariga ega va ayrim tashabbuslar bo'yicha alohida hujjat qabul qilishni talab etmaydi. Har bir islohotlar dasturi ijrosi uchun shaxsan javobgar bo'lgan mas'ul rahbar va muvofiqlashtiruvchi davlat tashkiloti belgilanmoqda.

Tegishli farmon bilan “O'zbekiston — 2030” strategiyasini “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi, 337 banddan iborat amaliy tadbirlar rejasini, ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy va strategik normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati ham tasdiqlandi.

2026-yilda sohalar bo'yicha eng muhim 59 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi va strategik islohotlarni nazarda tutuvchi 12 ta normativ-huquqiy hujjat loyihasi ishlab chiqiladi. Loyihalarni ishlab chiqishda jamoatchilik fikrini hisobga olishga alohida e'tibor qaratiladi.

Jamoatchilik muhokamasi natijalariga e'tibor bersak, avvalo, farmon loyihasiga fuqarolar qo'shimcha takliflar bildirganini alohida ta'kidlash kerak, — deydi “Taraqqiyot strategiyasi” markazi ijrochi direktori Eldor Tulyakov. — Eng asosiysi, jamoatchilik muhokamalarida aholining faolligi oshdi. Buni yurtdoshlarimizning deyarli barcha sohada o'z

takliflari bilan ishtirok etganida ham ko'rish mumkin.

Davlat dasturi 23-yanvar — 1-fevral kunlari ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng targ'ib qilindi. Internetda loyiha bilan 5 milliondan ortiq foydalanuvchi tanishib, 22 mingdan ziyod fikr-mulohaza va takliflar bildirildi.

Tahlillar natijasida konstruktiv deb topilgan 1000 ga yaqin taklif saralab olinib, davlat dasturi loyihasiga kiritildi. Bundan tashqari, AQSH, Germaniya, Turkiya, Fransiya, Kanada, Janubiy Koreya, Yaponiya, Shvetsiya, Portugaliya va Qozog'istonda vatandoshlar ishtirokida muhokamalar tashkil etilib, 60 ga yaqin qo'shimcha taklif olindi.

Dasturlar ijrosini moliyalashtirishga 250,5 trillion so'm ajratilishi va 50,4 milliard dollar mablag' jalb qilinishi ko'zda tutilgan. Davlat dasturi ijrosi bo'yicha Adliya vazirligi va Hisob palatasi doimiy monitoring yuritadi. Vazirlar Mahkamasi har chorakda ijroni muhokama qiladi. Har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot hamda har oyda Prezidentimizga axborot kiritib boradi. Biriktirilgan mas'ullar har chorakda iro holati yuzasidan Prezidentimizga axborot beradi.

Davlatimiz rahbari taqdimot qilingan loyihalar bilan batafsil tanishdi. Tegishli farmoni imzolab, islohotlar dasturlari hamda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” davlat dasturini tasdiqladi.

Barcha islohot va chora-tadbirlar, avvalo, odamlar hayotida aniq natija berishi, yangi ish o'rinlari ko'payishi, daromadlar o'sishi va aholi roziligida o'z aksini topishi zarurligi qayd etildi.

Ma'muriy tuzilma emas, iqtisodiy o'sish manzili

Mazkur farmon O'zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvining eng quyi bo'g'ini bo'lgan mahalla institutining rolini yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutadi. “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” doirasida belgilangan vazifalar mahallani shunchaki ma'muriy tuzilma emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning o'sish nuqtasiga aylantirishga qaratilgan.

Bu yo'nalishdagi islohotlarning asosiy mohiyati quyidagi muhim jihatlarida aks etadi. Iqtisodiy faollik va bandlik. Mahallalarda 10 mingga ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish loyihalari amalga oshirilishi orqali joriy yilda 100 mingta yangi ish o'ini ochiladi. Bu aholi bandligini ta'minlash bilan birga mahallalar ishlab tuzilmining samaradorligini oshiradi.

Kambag'allikka qarshi kurash. 3500 ta mahallani kambag'allikdan xoli hududga aylantirish maqsadi davlatning ijtimoiy siyosati manzili va natijador bo'lishini ta'minlaydi.

Infratuzilmani modernizatsiya qilish. Sohaga yo'naltirilayotgan 20 trillion so'm mablag' mahallalarning qiyofasini tubdan o'zgartirish, ya'ni ichki yo'llarni tartibga solish, ichimlik suv va energiya ta'minoti kabi eng dolzarb muammolarni hal etishga xizmat qiladi.

Zamonaviy boshqaruv va nazorat. Ijroni 24/7 rejimda onlayn nazorat qilish tizimi davlat



“O'ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI 2026-YILDA AMALGA OSHIRISH BO'YICHA DAVLAT DASTURI LOYIHALARI YUZASIDAN AXBOROT BERILDI. MAZKUR LOYIHALAR ILG'OR XORIJIY TAJRIBAGA TAYANIB, MUTLAQO YANGI YONDASHUV ASOSIDA ISHLAB CHIQILDI.

Umuman olganda, ushbu islohotlar mahallani xalq bilan davlat o'rtasidagi ishonchli ko'priikka va “farovonlik manzili”ga aylantirishni maqsad qilgan.

— Mahalla raislari mahalladagi mablag'lar xarajatlari borasida har chorak yakuni bo'yicha xalqqa ochiq hisobot berish tizimi yo'lga qo'yiladi, — deydi O'zbekiston mahallalari uyushmasi raisi Qahramon Quronboyev. — Mahalladagi ichki yo'llar, piyodalar va velosiped yo'laklarini tashkil etish bo'yicha ham alohida yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Mahallalarda biznes-inkubatorlarni tashkil etish, daraxtlarni kesish holatlari bo'yicha javobgarlik choralari yana-da kuchaytirish maqsadida yigirmaga yaqin yo'nalishda takliflar bildirilgan. Jami 1 million 300 mingga yaqin kishining bandligini ta'minlash va 181 ming oilani kambag'allikdan chiqarish masalalari belgilab olingan. Mol-mulk va yer solig'ining 15 foizi, ayrim jarimalarning 10 foizi mahallalar jamg'armalari yo'naltiriladi.

Texnologik va innovatsion model

Davlat dasturida iqtisodiy islohotlarning yo'nalishlari va aniq natijaga yo'naltirilgan ko'rsatkichlari belgilab berildi. Ya'ni soha va tarmoqlarni texnologik o'sish modeliga o'tkazish orqali joriy yilda YIM hajmini 167 milliard dollar, iqtisodiy o'sishni 6,6 foiz

ishsizlikni 4,5 foizgacha, kambag'allikni esa 2,8 foizgacha tushirish ko'zda tutilgan. Bu ko'rsatkichlar iqtisodiy islohotlarning bevosita inson manfaatlariga xizmat qilishini anglatadi. Investitsiya va xizmatlar bozori. Iqtisodiyotga 50 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilishi



va xizmatlar bozori hajmining 100 milliard dollardan oshirilishi yangi texnologiyalar va innovatsiyalar oqimini tezlashtiradi.

Qurilish va infratuzilma. Qurilish hajmini 30 milliard dollarga yetkazish va 3500 dan ziyod yangi xizmat ko'rsatish obyektlarini ishga tushirish hududlardagi urbanizatsiya va infratuzilma rivojiga kuchli turtki beradi.

Kasblarni rivojlantirish bo'yicha islohotlar

Kasblarni rivojlantirish dasturi mehnat bozorini tubdan yangilash va aholini ommaviy kasbga tayyorlashga qaratilgan. Dastur doirasida ishsiz va kam ta'minlangan 400 ming kishi kasb-hunar, xorijiy til va tadbirkorlikka o'qitiladi, 200 mingga yaqin maktab bitiruvchisining texnikumlarda kasb egallashi ta'minlanadi.

— Joriy yilda Toshkent shahri va viloyati, Buxoro va Farg'ona viloyatlarida to'rtta data-markaz, ikkita superkompyuter va 15 ta OTMdada sun'iy intellekt laboratoriyasi faoliyati yo'lga qo'yiladi, — deydi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri Qo'ng'irov Sharipov. — Bu orqali 100 dan ortiq sun'iy intellekt loyihalari amalga oshiriladi. Shu bilan birga, to'rtinchi sanoat inqilobi markazi tashkil etiladi. Natijada mamlakatimizda o'rta va yuqori texnologik mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmini 5-7 foiz oshirishga erishiladi.

Davlat dasturida ilmiy ishlarni amalga oshirish iqtisodiyot tarmoqlariga kengroq joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsad qilingan. Tadiqotchilar salohiyatini kuchaytirish orqali mamlakatimizda intellektual resurslar ko'lamin kengaytirish va ilmiy-texnologik rivojlanishni jadallashtirish ko'zda tutilmoqda.

— Kasbiy ta'lim sohasidagi yangiliklardan biri sifatida dual ta'lim ishtirokchilariga stipendiya to'lash tartibi belgilanmoqda. Joriy yilning o'zida 100 mingdan ortiq o'quvchi stipendiya bilan ta'minlanadi. Shuningdek, hududlarda Xitoy ustaxonalari faoliyati yo'lga qo'yiladi, — deydi Kasbiy ta'lim agentligi direktori Azimjon Husanov.

— Shuningdek, kasbiy ta'lim sohasida o'quvchilarning xalqaro ko'rik-tanlovlardagi ishtirokini munosib rag'batlantirish mexanizmlari joriy etilmogda.

Mustaqil ta'limni rivojlantirish uchun 100 dan ortiq kasbni o'rgatuvchi milliy platforma ishga tushiriladi va 24 ta malaka baholash markazi tashkil etiladi. Ta'limdan ishga o'tishni ta'minlash maqsadida “Karyera” elektron platformasi orqali 1,6 million talaba va bitiruvchi hamda 50 mingdan ziyod ish beruvchi yagona mehnat bozoriga ulanadi.

Texnikum tizimi kengaytirilib, 100 mingdan ziyod o'quvchiga stipendiya tayinlanadi. Xalqaro ta'lim dasturlari asosida 8000 o'quvchi tayyorlanadi. Shuningdek, 20 ta O'zbekiston — Xitoy ustaxonasi tashkil etiladi. Umuman, dastur ommaviy kasbga o'qitish va raqamli mehnat bozori orqali iqtisodiyot uchun zamonaviy, raqobatbardosh kadrlar zaxirasini shakllantirishga qaratilgan.

Ekologik muvozanatni ta'minlash va suvdan oqilona foydalanish

Ekologik muvozanatni ta'minlash va suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha islohotlar mamlakatda “yashil” iqtisodiyotni shakllantirish hamda tabiiy resurslarni tejashga qaratilgan ustuvor choralarni qamrab oladi. Ushbu yo'nalish doirasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish hisobiga 7 milliard kub metr tabiiy gaz tejatish, atmosferaga 11 million tonna zararli moddalar chiqarilishining oldi olinishi ko'zda tutilgan.

— Aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lib kelayotgan kunlik ekologik muammolar ushbu dasturda e'tiborsiz qoldirilmagan, — deydi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi raisi o'rinbosari Iskandar Qutbiddinov. — Masalan, aholining ekologik transport, ya'ni elektromobilidan foydalanishni rag'batlantirish nazarda tutilmoqda. Bunda imtiyozli avtokreditlar berish rejalashtirilgan. Shuningdek, sanoat korxonalari atmosferaga chiqarayotgan tashlanmalarni kamaytirish borasida ham qator vazifalar belgilangan.



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

Mamlakatimizning ayrim hududi subtropik iqlimga ega. U yerda issiqxonalar faoliyat yuritisa, ularga gaz, ko'mir kerak bo'lmaydi. Buni inobatga olgan holda Toshkent shahri va viloyati hududida faoliyat yuritayotgan issiqxonalar subtropik hududlarga ko'chirilsa, ularga qo'shimcha soliq imtiyozlari, subsidiya qo'llanishi ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, 504 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish orqali 5 milliard kub metr suv iqtisod qilinadi. Kadrlar tayyorlash va ekologik madaniyatni kuchaytirish maqsadida 2026/2027-o'quv yilidan boshlab har bir hududda 14 ta “yashil” texnikum dual ta'lim asosida tashkil etiladi. Shu bilan birga, ekspluatatsiya muddati o'tgan avtomobillarni utilitatsiya qilish va ularni qayta ishlash tizimi yo'lga qo'yiladi. Elektromobillardan foydalanish ko'lamin kengaytirish uchun aholiga 16 foizgacha imtiyozli kredit ajratish tartibi joriy etiladi.

Suv resurslarini tejash va infratuzilmani modernizatsiya qilish ham asosiy yo'nalishlardan. Yaqin yillarda suv tejovchi texnologiyalar ko'lami 60 foizdan 80 foizga kengaytiriladi. Xususan, ochiq drenaj, kollektor va kanallarni yopiq tizimga o'tkazish, 1300 kilometr kanal va sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish orqali yiliga qo'shimcha 500 million kub metr suv tejash rejalashtirilgan.

Umuman, mazkur choralar ekologik xavflarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va aholi uchun barqaror hamda sog'lom yashash muhitini shakllantirishga qaratilgan.

Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish

Hujjatda aks etganidek, davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish maqsadida Oliy Majlis palatalarining tashqi qarzni boshqarish sohasidagi, deputatlarning mahallalarda yashil bog'lar, yashil jamoat parklarini tashkil etishdagi vakolatlari kengaytiriladi.

Sud-huquq tizimida adolat va shaffoflikni ta'minlash maqsadida o'ta og'ir jinoyat ishlarini sudda jamoatchilik vakillaridan iborat xalq vakillari hay'ati ishtirokida ko'rib chiqish amaliyoti joriy etiladi. Shuningdek, jinoyat protsessida majburlov choralari qo'llanishi ustidan sud nazorati kuchaytirilib, tergov sudyalari vakolati kengaytiriladi.

Bundan tashqari, korruptsiya, giyohvandlik, ayollar va bolalarga nisbatan zo'rvonlik kabi jamiyat uchun dolzarb tahdidlarga qarshi kurashishning amaliyot tizimi yo'lga qo'yilib, huquqiy tartibot va jamoat xavfsizligini ta'minlashning yangi mexanizmlari joriy etiladi. Dastur xalq muhokamalarini asosida shakllanib, tasdiqlandi. Maqsad va unga erishish yo'llari belgilab berildi. Moliyalashtirish manbalari aniq. Farmon bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahri va tuman (shahar) lar hokimlariga islohotlar dasturlarini hududlar kesimida amalga oshirish bo'yicha shaxsiy mas'uliyat yuklatilmoqda.

Davlat dasturi bilan tanishar ekanmiz, har bir band, har bir bo'lim aniq maqsad va natijaga asoslanganiga guvoh bo'lamiz. Asosiysi, davlat dasturi ijrosiga nafaqat davlat idoralari, balki jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar ham keng jalb etilyapti. Shuningdek, parlament va jamoatchilik nazoratiga tayanilmoqda. Bir so'z bilan aytganda, hujjat har tomonlama puxta ishlangan, maqsadi esa ezu. Eng asosiysi, bu jarayonda har birimiz daxldorlik va mas'uliyatni his etmog'imiz muhim ahamiyatga ega.



2026-yil 20-fevral, 35-son

Yaqinda bir tadbirkor bilan suhbatlashganimda, qo'lda to'qilgan hunarmandlik mahsulotlarini deyarli bozorga olib chiqmasligi, asosiy xaridorlarni xalqaro ko'rgazmalardan topishini aytib qoldi. O'tgan yili shunday yirik ko'rgazmalarining birida Nyu-Yorkda chop etiladigan mashhur jurnaldan buyurtmalar olgani, yigirmadan ortiq mahsulot yetkazib berganini aytganida unchalik ishonmadim. O'sha jurnalni varaqlagach, sahifalarida aynan shu hunarmand to'qigan sumkalarining suratini ko'rgach, hayratimni yashirdim.

Nazarimda, xalqaro ko'rgazmalar mahsulotlarni bir burchakka joylashtirib, bir necha kun davomida odamlar uchun namoyish etadigan joy degan tasavvurim hali ham saqlanib qolgan. Ammo bunday emaslilgiga yana bir bor amin bo'ldim. Hozir yurtimiz tadbirkorlari mahalliy va xorijdagi ko'rgazmalarda faol ishtirok etish ortidan ko'plab hamkorlar topib, yangi bozorlarga chiqmoqda. Ko'rgazma maydonining o'zidayoq yirik shartnomalar imzolanyapti. Bu milliy brendimiz ostidagi mahsulotlarimiz jahon bozorida tanilishi, xaridorlar ishonchiga kirishi hamda eksport ko'rsatkichlari karrasiga oshishiga xizmat qilmoqda.

2030-yilgacha mamlakatimiz eksporti hajmini 45 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. Bu marraga erishish uchun an'anaviy bozorlar bilan cheklanib qolmasdan, yangilariga chiqish zarurligi qayta-qayta ta'kidlanayapti. Yurtimizning dunyo davlatlariga ochiqlik siyosati bunga katta imkoniyat bermoqda. Ammo jarayonda mahalliy tadbirkorlar ishtirokini doimiy oshirib borish uchun amaliy harakatlar zarur. Keyingi yillarda mahalliy ishlabarmonlarimizning xalqaro ko'rgazmalardagi ishtirokini oshirishga qaratilgan ishlar shularning bir qismi.

AMERIKA PAVILYONLARIDA

Davlatimiz rahbarining o'tgan yil dekabr oyida Oliy Majlis va xalqimizga yo'llagan Murojaatnomasida eksport hajmini oshirish, yangi bozorlarga kirib borish hamda milliy brendimizni yanada tanitish borasida aniq vazifalar belgilangan. Shu bois, yil boshidanoq bu boradagi harakatlar boshlab yuborildi. Savdo-sanoat palatasi boshchiligidagi tadbirkorlarimizdan iborat delegatsiya bugunga qadar qator yirik xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etdi.

Bular shunchaki ko'rgazma emas, global savdo bozorining bir qismi. Ularda katta shartnomalar tuziladi, bozorlar taqsimlanadi, iqtisodiy sheriklar topiladi. Mahalliy tadbirkorlarimiz esa rivojlangan mamlakatlar qatorida ana shu maydonlardan joy egallab, milliy mahsulotlarimizni namoyish etmoqda. Yangi hamkorlar, biznes sheriklar topyapti.

Dastlabki biznes safari AQSHning Nyu-York shahrida joylashgan "Texworld New York City" xalqaro ko'rgazmasi bo'ldi. U jahon to'qimachilik va yengil sanoat sohasidagi eng yirik tadbirlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizdan 20 ga yaqin yetakchi kompaniya "Made in Uzbekistan" milliy brendi ostida 20-22-yanvar kunlari mazkur xalqaro ko'rgazmada ishtirok etdi. O'zimizda ishlab chiqarilgan matolar, ip-kalava, tayyor kiyimlar, zamonaviy aksesuar va innovatsion yechimlar namoyish qilindi. Milliy mahsulotlarimizning yuqori sifati, ekologik tozaligi va jahon standartlariga mosligi xalqaro xaridorlar va ekspertlar e'tiborini tortayotgani sir emas.

"Texworld New York City" dunyo bo'yicha juda mashhur ko'rgazmalardan biri. Hatto uning qatnashchilari jahon miqyosiga chiqqan tadbirkor

Nargiza BEKMURODOVA, Xorazmdagi "Arta tex" MCHJ rahbari:

— Amerika bozori juda katta. Lekin unga kirish, xaridor topish oson emas. Ammo davlatimiz ko'magida katta qadamlar tashlanyapti, yaqin yillarda bu bozorga faol kirib, munosib o'rin egallashimizga ishonaman. Xalqaro ko'rgazmalarining yaxshi tomoni ham shunda, mamlakatdagi tadbirkorlar bir joyda jamlanadi, mahsulotlarimizni namoyish etish, yaqindan tanishtirish imkoni bo'ladi. O'zimiz hamkor izlab yurmamiz, ko'rgazma davomida kelishuvlarga erishish mumkin. Hech bo'lmaganda, o'sha davlatning bozori, talablari bilan tanishib, o'rganib qaytamiz.

Muhimi, ko'pincha natija bo'ladi. Bu Amerikaga ikkinchi marta borishimiz. Nyu-Yorkdagi ko'rgazmada o'tgan yili ham qatnashganman. O'shanda bitta hamkor topgandik, kelishuvlardan so'ng amerikalik mijozga mahsulot eksport qildik. Ko'rgazmadagi bu yilgi ishtirokim yanada samarali bo'ldi. Bir nechta xaridor mahsulotlarimizga qiziqish bildirdi. Ular bilan muzokaralar qilyapmiz, tayyor erkaklar kiyimlariga xaridor bo'lyapti.

Bugun mahalliy tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlar ortida milliy mahsulotlarimizni jahon bozoriga kengroq olib chiqish maqsadi bor.

MADE IN UZBEKISTAN

yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Jahon bozori sari

DUNYONING UCH NUQTASI

O'ZBEK MAHSULOTLARI NUFUZLI KO'RGAZMALARDA



“GULFOOD — 2026”: GLOBAL SAVDO MAYDONI

Yurtimiz tadbirkorlarining keyingi mazzili osmono'par binolari bilan nom chiqargan Dubai shahri bo'ldi. U yerda yurtdoshlarimiz yil davomida katta qiziqish bilan kutladigan hamda dunyo oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari sohasidagi eng yirik ko'rgazmalardan biri — “Gulfood — 2026”da ishtirok etdi. 26-yanvar kuni start olgan ko'rgazma bir necha kun davomida jahonning 190 dan ortiq davlatidan kelgan 8500 dan ortiq kompaniya vakillarini yagona nuqtada jamladi. Ushbu global maydonda o'zbekistonlik tadbirkorlar ham bor edi.

— Mazkur ko'rgazma 30 yildan buyon o'tkazib kelinadi, — deydi “Savdoni rivojlantirish kompaniyasi” AJ boshqaruvi raisi Xolmurod Boboyev. — Unda jahonning eng yirik kompaniyalari ishtirok etadi. Bular qatorida yurtimizdan ham 70 ga yaqin ishlab chiqaruvchi korxona o'z mahsulotlari bilan, 50 dan ortiq korxona esa kuzatuvchi sifatida qatnashdi. “Gulfood — 2026” doirasidagi ishtirok

mahalliy ishlab chiqaruvchilarimiz uchun yangi xalqaro hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, eksport geografiyasini kengaytirish hamda “Made in Uzbekistan” brendini jahon bozorida yanada mustahkamlash yo'lidagi muhim qadam hisoblanadi.

Xalqaro ko'rgazmaning 510 kvadrat metr maydonidagi ekspozitsiyada milliy brend ostidagi oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari namoyish etildi. Bu shunchaki namoyish emas, balki mahsulotlarimizning xalqaro xaridorlar va potentsial hamkorlarga yuqori nuqtadan turib, munosib shaklda taqdim qilinishi bo'ldi. Ular arab davlatlari vakillarida katta qiziqish uyg'otgani aytilmoqda. Har holda, bir necha daqiqalik suhbatlar ortidan millionlab dollarlik shartnomalar tuzilgan. Mahalliy tadbirkorlarimiz global bozorning eng yirik savdo nuqtasida turib, imkoniyatlardan maksimal foydalanishga intilgan. Natijalar ham shunga yarasha.

Shahzodbek MUTALOV, “ISKO” qandolat korxonasi rahbari:

— Ko'rgazma davomida asosiy xaridorlar arab davlatlaridan bo'ldi. Ular mahsulotlarimizni shunchaki tatib ko'rmasdi, balki doimiy hamkorlik taklifini bildirdi. Shirinliklarning ta'mi ularga juda ma'qul keldi. Mahsulotlar turi va sifatidan hayratga tushganlarini ham yashirishmadi. Oyiga 70-80 tonna atrofida qandolat mahsulotini barqaror olishini aytishdi. Bu bo'yicha qator masalalarda kelishib oldik. Ayni paytda kelishuvlarimiz ikkinchi bosqichi ketaypti va narx-navo hamda keyingi operatsiyalar bo'yicha muzokaralar olib borilyapti.

Ko'rgazma davomida xaridorlarni, asosan, logistika va sertifikatlar masalasi qiziqtirishiga guvoh bo'ldik. Ya'ni mahsulotlarimizning ta'mi va sifati borasida hech qanday shubhalari yo'q, juda ma'qul kelyapti. Faqat yetkazib berish va xalqaro standartlarga moslik jihatlarini muzokaralarni talab qilyapti. Ochig'i, oldinlari xalqaro sertifikatlar borasidagi kamchiliklarimiz sabab O'zbekiston faqat vostichaki bo'lgan. Ya'ni ikkinchi davlat bizdan mahsulot sotib olib, Yevropa bozorlariga



eksport qilgan. Keyingi yillarda yurtimizda ana shu jihatlariga e'tibor qaratilib, xalqaro bozorga har tomonlama moslashishimiz ortidan buyon o'zimiz mahsulotlarni istalgan bozorga to'g'ridan to'g'ri olib kiriyapmiz.

Logistika yo'nalishidagi masalalarning ham birin-ketin yechilayotgani eksportni qulaylashtiryapti. Masalan, arab hamkorlarimizga

MILLIY BRENDLARIMIZ IROQDA

Avvallari Afg'oniston, Iroq bozori desa, tadbirkorlarimizda hadik bo'lardi. Hozir ularga eng istiqbolli, mahsulotlarga talab yuqori bo'lgan bozorlardir biri sifatida qaralayapti. Mahalliy ishlabarmonlarimizdan iborat delegatsiya bir necha bor ushbu davlatlarda bo'lib, doimiy tarzda ko'rgazma, biznes-forumlarda ishtirok etyapti. Hatto o'tgan yili noyabr oyida Afg'onistonning Mozori Sharif shahridagi yirik savdo hududida o'zbekistonlik elektrotexnika yo'nalishidagi tadbirkorlar mahsulotlari sotiladigan kattagina savdo markazi ish boshladi.

Shunday qilib, tadbirkorlarimizning navbatdagi safari Iroqning Bag'dod shahriga bo'ldi. Yurtimizdan borgan 200 dan ortiq ishlabarmon 1-7-fevral kunlari nufuzli “Baghdad International Fair” xalqaro ko'rgazmasida ishtirok etdi. O'zbekiston milliy ekspozitsiyasi uchun ming kvadrat metr maydon ajratildi. Pavilyonda yurtimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat, to'qimachilik, yengil sanoat, elektrotexnika va boshqa turdagi eksportbop mahsulotlar “Made in Uzbekistan” brendi ostida namoyish etildi.

Ma'lumotlarga ko'ra, mazkur nufuzli tadbir Iroqning eng yirik savdo platformalaridan biri bo'lib, har yili dunyoning 20 dan ortiq davlatidan yirik kompaniyalar vakillari qatnashadi. Ko'rgazma xalqaro biznes aloqalarini kengaytirish, yangi bozorlarga chiqish va eksport salohiyatini oshirish uchun muhim maydon vazifasini o'taydi.

— 25 yildan buyon turli davlatlardagi oziq-

Yorqin MALIKOV, O'zbekiston eksportchilar uyushmasi raisi:

— Ko'rgazma kutganimizdan ham yuqori darajada o'tdi. Iroq savdo vaziri, ishtirokchi davlatlarning elchilari hamda ko'rgazmaning nufuzli mehmonlari birinchi bo'lib “Made in Uzbekistan” milliy ekspozitsiyasi pavilyoniga tashrif buyurib, faqat O'zbekistonga faxriy ishtirokchi maqomini berdi. Vakillarimiz katta hurmat bilan kutib olingani ham hamkorlikka har ikki tomon ochiq ekanidan dalolat beradi.

Iroq bozorining umumiy savdo aylanmasi 250 milliard dollar bo'lib, shundan 95 milliard dollari import hissasiga to'g'ri keladi. Ya'ni eksport uchun katta bozor bor. Shu bois, biz oziq-ovqat yo'nalishining o'zida 1 milliard dollarlik eksportni amalga oshirishni rejalashtiryapmiz. Boshqa sohalarda ham imkoniyatlarimiz yuqori.

Iroq bozorida xuddi Afg'onistonnikabi mahalliy mahsulotlarimizga talab juda katta. Asosiy jihati, mamlakatda sertifikatlar bo'yicha qat'iy talablar mavjud emas, bo'j to'lovlari ham deyarli yo'q. Iroqlik tadbirkorlar mahsulotlarimizga katta



qiziqish bildiryapti. Ular asosan Turkiya, Eron, Xitoydan import qilar ekan. O'zbekiston bilan savdo qilishda hech qanday qiyinchiliklar yo'q. Logistika jihatidan ham juda qulay, 7-8 kunda mahsulot kirib boradi. Bu bizning tadbirkorlar uchun ham yaxshi imkoniyat.

Umuman, ana shunday xalqaro ko'rgazmalar jarayonida tadbirkorlarimiz nafaqat yangi bozorlarga chiqib hamkorlar topyapti, balki xalqaro

tushdi. Endi muzokaralarni aniq kelishuvlarga aylantiramiz. Oldin bu davlat bilan korxonamizning savdo aloqalari bo'lmagan. Lekin bu bozorda imkoniyat katta ekaniga guvoh bo'ldik. Hatto Iroqda “O'zbekiston” nomi ostida kichik do'kon ochmoqchimiz.

Ahamiyatlisi, tadbirkorlarimiz Iroqqa to'g'ridan to'g'ri charter reys orqali yetib borgan. 200 dan ortiq tadbirkorning har biri uchun aviabiletlar, ko'rgazma maydonida ishtirok etish mutoqo bepul bo'lib, davlat tomonidan qoplab berilgan. Maqsad esa milliy brendni omallashtirib, eksport hajmini oshirishga qaratilgan. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar bu katta imkoniyat ekanini ta'kidlamogda.

maydondagi savdo talablari, yangi tendensiyalarni faol o'rganib, shunga moslashmogda. Ammo maqsad faqat ko'rib, o'rganib kelish emas. Har bir tadbirkor aniq maqsad bilan ketadi va jarayonlarda yirik summalardagi shartnomalar imzolanyapti. Bir misol, o'tgan yil davomida O'zbekistondan jami 700 tadbirkor Afg'onistondagi turli ko'rgazmalarga olib borildi. Natijada ushbu mamlakatga eksport hajmimiz 2024-yildagiga nisbatan deyarli ikki baravar oshib, 1 milliard 800 million dollarga yetdi. Boshqa davlatlar bilan ham shunday natijalar kuzatilyapti.

Tadbirkorlardan so'rasam, xalqaro ko'rgazmalar haqida to'lg'inlanib, yangi hamkorlari haqida to'lib-toshib gapiryapti. Demak, eksport ko'rsatkichlarimizni oshirishga qaratilgan bu harakat ham yaxshigina natija bermoqda. Oldinda yana ko'plab xalqaro ko'rgazmalar borligi, tadbirkorlarimiz allaqachon ularga tayyorgarlikni boshlab yuborganlari haqida aytdi.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

Yangi O‘zbekistonda yetishib kelayotgan “oltin avlod” tiynatida “men kuchliman” degan kayfiyat hukmron. Ma’naviyat bilan oziqlangan shijoatli avlod o‘zida uyg‘onayotgan vatanparvarlik xislatlarini dunyoga namoyish qilyapti.



Bugunning gapi

HAMMUALLIF BO‘LISH O‘Z QO‘LIMIZDA

Baxtga intilib yashash insoniyatga xos umumiy tuyg‘u.

Bobom aytardi: “Erkak kishining baxti — uyiga to‘rtta non ko‘tarib kelishida!”. Xasta buvim derdi: “To‘rt muchang sog‘mi, demak, eng baxtli odamsan!”. Otamning gapi: “Sizlarni (farzandlarimni) o‘qitib, ziyoli qildim, mendan ortiq baxtlisi yo‘q!”. Onam: “Sen va singillaringning oilasi tinchligi — eng katta baxtim!”. Turmush o‘rtog‘im deydi: “Bolalarimiz yaxshi inson bo‘lib yetishsa, yomonlardan uzoq bo‘lsa, qanday baxt-a!”. Kenja farzandim: “Eng oxirgi telefon modelini olsam edi!”. To‘rt yoshli nabiramga baxt haqida tushuncha berib, “Baxt nima ekan?” deb so‘rasam, mohiyatini anglab-anglamay javob beradi: “Menga ko‘p-ko‘p shirinlik olib kelishingiz”.



Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Negaki, takror bo‘lsa ham aytamiz: marra yuqorilab, maqsad katalashib boradigan davrlarga keldik va bu tabiiy!

Baxt yoki baxtiyorlik balki ilmiy doiralarda qandaydir formulalar, aniq ilmiy ta’riflar bilan ifodalanan. Lekin kundalik sodda va murakkab muhitimizda uning o‘lchovi, vazni, bo‘yi, eni, rangi kabi sifatleri mavjud emas. Bitta yagona shakli ham yo‘q. Ammo baxtning zalvori bor. Ana shu zalvor uni baxt sifatida umumiy nuqtada birlashtirib turadi.

Shaxs, jamiyat va bashariyat uchun ifodasi turlicha, ammo maqsad-muddaosi bitta baxt tushunchasi mavjud. Mutafakkir Jaloliddin Rumiy “Odamning eng baxtli lahzasi boshqalarga yaxshilik qilgan damlaridir”, deydi. Abu Nasr Forobiy esa “Inson yuksak kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilgandek, aqliy bilimga ham harakat qilsa, hech shubhasiz, o‘zi intilayotgan so‘nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi” hikmatini ilgari suradi. Ahamiyat bersangiz, bu o‘rinda zalvor boshqa rakursda namoyon bo‘lyapti.

Har bir inson izlaydigan orzu bu — baxt. Uni faylasuf o‘tkir fikri, olim ilmi, sodda kishi oddiyligi, davlatmand hashamatli uyi, kambag‘al esa pastqam kulbasidan izlaydi. Baxtiyorlik — ma’naviy hodisa. Uni inson qalbi, ichki huzurlanishi bilan his qiladi.

Bugun zamon shiddati o‘zgarishi oldimizga qo‘ygan maqsad va talablarimizga ham ta’sir qildi dedik. Bu yerda xalqimizning o‘ziga ichki ishonchi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangi oila

dunyoning yetakchi kompaniyalarida ishlayman deb harakat qilayotgan va bu maqsadlariga erishayotgan hamyurtlarimizning bugun son-sanog‘i yo‘q.

Yangi O‘zbekistonda yetishib kelayotgan “oltin avlod” tiynatida “men kuchliman” degan kayfiyat hukmron. Ma’naviyat bilan oziqlangan shijoatli avlod o‘zida uyg‘onayotgan vatanparvarlik xislatlarini dunyoga namoyish qilyapti.

Xalqaro miqyosda baxtni, baxtiyorlikni o‘lchashning qator shakllari qo‘llaniladi. Masalan, o‘tgan yili mart oyida BMTning jahon mamlakatlari farovonligi darajasini o‘rganuvchi markazi World Happiness Report O‘zbekistonning baxtli mamlakatlar reytingidagi o‘rni haqida ma’lumot berdi. Mamlakatimiz aholisi baxtli mamlakatlar reytingida 53-o‘rinni egalladi. Hisobotda Qirg‘iziston 75-o‘rin, Rossiya 72-o‘rin, Moldova 80-o‘rin, Armaniston 87-o‘rin, Tojikiston 90-o‘rin, Gruziya 91-o‘rin, Ozarbayjon 106-o‘rin va Ukraina 111-o‘rinda qayd etilgan.

World Happiness Report xalqaro tadqiqot loyihasi bo‘lib, u butun dunyo mamlakatlardagi odamlarning baxtlilik darajasini o‘lchaydi. Reytingni tuzishda mamlakatning iqtisodiy salohiyati (aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot), sog‘liqni saqlash sifati (o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi), erkinlik va xavfsizlik darajasi kabi mezonlar, shuningdek, aholining davlat va uning siyosatiga ishonchi darajasi kabi ijtimoiy jihatlar hisobga olinadi.

“Hamмамizga ayonki, Mirzo Ulug‘bek bobomiz bundan olti asr muqaddam insoniyat uchun yulduzlar xaritasini yaratgan edi. Bugun esa biz hozirgi va kelajak avlodlarimiz uchun baxtli hayotga olib boradigan yo‘l xaritasini yaratishimiz lozim.

Mana shu haqiqatni chuqur his etib, barchamiz birlashib harakat qilsak, har qanday yuksak marrani zabt etishga qodirmiz, biron-bir kuch bizni o‘z yo‘limizdan qaytara olmaydi. Bir bo‘lsak, yagona xalq, yagona millat bo‘lib olg‘a intilsak, ko‘zlagan ulkan maqsadlarimizga albatta yetamiz!

Men bu yo‘lda mard va olijanob xalqimizga ishonaman! O‘zbekistonning beqiyos kuch va imkoniyatlariga, aziz yoshlarimizning azmu shijoatiga ishonaman!”.

Davlatimiz rahbarining o‘tgan yil dekabr oyi so‘ngida Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi aynan shu da’vat bilan yakunlanadi. Uning ma’nosini anglangan har bir



qurgan farzandim uchun yangi uy solaman, kvartira sotib olaman, otam uchun avtomobil xarid qilaman, IELTSdan eng yuqori ball olib, nufuzli ta’lim dargohida o‘qiyman, zo‘r mutaxassis bo‘lib,

yurtdoshimiz esa baxtli hayotga olib boradigan “yo‘l xaritasi”ning hammualliflari qatoridan joy olishi mumkin.

Xulosa o‘zingizdan.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahitlandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

YANGI O‘ZBEKISTON

www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

Mushohada

MARRANI BALAND OLAYLIK

Shuhrat JABBOROV,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat
ko‘rsatgan jurnalist

Biz haqiqatan shiddatli zamonda yashayapmiz. Xayolga tez-tez bugungi islohotlar va yangilanishlar jarayoni kelajak avlodga qanday meros qoldiradi degan o‘y keladi. Zotan, o‘zligini anglangan, vatan taqdiriga daxldorlik hissi bilan yashayotgan har bir yurtdoshimizning ko‘nglidan shunday savollar o‘tishi tabiiy. Bu savollarning javobi esa bitta: biz Uyg‘onish davrida, buyuk o‘zgarishlar va yuksak marralar sari dadil odimlayotgan yangi O‘zbekistonda yashayapmiz.



yig‘ilishda belgilangan vazifalar ham davlatimizning o‘z fuqarolari xavfsizligini har narsadan ustun qo‘yishini yana bir bor tasdiqladi. Tinch va osoyishta vatanda rivojlanish bo‘ladi, bunday yurtdagina kelajakdan umid qilinadi.

Bugungi dorilamon kunlarga baho berishda ko‘pni ko‘rgan nuroniylarimizning fikri g‘oyat qimmatli. 86 yoshni qarshilagan ustoz jurnalist To‘lqin Qozoqboyevning quyidagi so‘zlari ayni haqiqatdir: “Men yoshimni yashab, oshimni oshab, shu kunlarga yetib keldim. Insof bilan, xolis aytganda, bugungi erkinlik, imkoniyatlar tarixda hech qachon bo‘lgan emas. Shu kunlarning qadriga yetishimiz, shukronalik bilan yashashimiz kerak. Mehnat qilgan, el-yurt uchun jon kuydirgan insonlar yuzaga chiqmoqda”.



Bugungi kun manzaralariga xolis nazar tashlagan har qanday inson borki, mamlakatimizdagi tub burilishlarni, hayot sifati oshib borayotganini e’tirof etmay iloji yo‘q.

Yurtimizda tadbirkorlik muhiti erkinlashtirilishi hamda xususiy sektorga keng yo‘l ochilishi natijasida iqtisodiy-ijtimoiy hayotimizda misli ko‘rilmagan o‘sish kuzatildi. Bozorlarimizdagi to‘kin-sochinlik, xizmat ko‘rsatish sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar, zamonaviy restoran va ovqatlanish shoxobchalari ko‘payishi — bularning bari aholi to‘lov qobiliyatining oshgani va turmush darajasi yuksalganidan dalolat beradi.

Bir paytlar oddiy ehtiyojlarni qondirish mushkul bo‘lgan davrlar endilikda tarixga aylandi. Bugun har bir xonadon dasturxonida baraka, har bir oilada ertangi kunga mustahkam ishonch bor. O‘zgarishlar o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Bu mamlakatimizda yuritilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat va xalqimizning fidokorona mehnati samarasidir.

Bugungi O‘zbekiston — imkoniyatlar mamlakati. Kimki halol mehnat qilishni, o‘z salohiyatini namoyon etishni istasa, uning uchun barcha eshiklar ochiq. Yurtimizning turli hududlarida barpo etilayotgan yangi korxonalar, klasterlar va ishlab chiqarish majmualari minglab yangi ish o‘rinlari yaratmoqda.

Inson mehnati bilan qadrlidir. Bugun jamiyatimizda “tadbirkor — boy, demak, xalq ham boy” tamoyili asosida



“Bugungi O‘zbekiston — imkoniyatlar mamlakati. Kimki halol mehnat qilishni, o‘z salohiyatini namoyon etishni istasa, uning uchun barcha eshiklar ochiq. Yurtimizning turli hududlarida barpo etilayotgan yangi korxonalar, klasterlar va ishlab chiqarish majmualari minglab yangi ish o‘rinlari yaratmoqda.

ish ko‘rilmogda. Odamlarimiz nafaqat ishchi kuchi, balki o‘z biznesini yo‘lga qo‘yib, boshqalarga ham rizq ulashuvchi mulkdorga aylanmogda. Moddiy manfaatdorligi esa pirovardida jamiyat farovonligi va yurt obodligiga xizmat qilayotir.

So‘nggi yillardagi islohotlar markazida “Inson qadri uchun” degan ezgu g‘oya turibdi. Kambag‘allikni qisqartirish, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tizimli va manzilli ishlar yo‘lga qo‘yildi. “Mahallabay” ishlash tizimi orqali har bir xonadonning muammosi

Dunyoning turli nuqtalarida notinchliklar, ziddiyatlar va xavotirlarhukm surayotgan bir paytda O‘zbekiston tinchlik va barqarorlik oroli bo‘lib qolmogda. Davlatimiz rahbari o‘z faoliyatining ilk kunlaridanoq xalqimizning tinchligi va salomatligi eng oliy vazifa ekanini belgilab bergan edi.

O‘zbekistonning tashqi siyosatdagi ochiqligi, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona aloqalarni mustahkamlagani mintaqamizda xavfsizlik va hamkorlik muhitini yaratdi. 2026-yilning boshida Toshkentda bo‘lib o‘tgan, aholi tinchligi va mol-mulki daxlsizligini ta’minlashga bag‘ishlangan

Darhaqiqat, vataniga sodiq, uning ravnaqi uchun hissa qo‘shayotgan insonlar bugun qadrlanmogda. Ularning fidoyiligi tufayli O‘zbekiston xalqaro maydonda yangi marralarni zabt etmogda. Bir yilda erishilayotgan natijalar qamrov va mazmun jihatidan o‘n yilliklarga tatigulikdir.

Har bir davrning o‘z chaqirig‘i, o‘z missiyasi bo‘ladi. Bizning vazifamiz boshlangan islohotlarni jadallashtirish, natijalarimizni jahon andozalari bilan bo‘ylashtirishdir. Bugun O‘zbekiston bayrog‘i dunyo arenalarida baland hilpiramogda, madhiyamiz sadolari xalqaro minbarlarda yangramogda. Bu bizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi.

Keyingi paytlarda minbarlarda yangrayotgan “Marrani baland olaylik” degan ezgu da’vat shunchaki shior emas, balki har birimizning kundalik faoliyatimiz mezon, hayotiy dasturilamalimizga aylanishi lozim. Zero, marrasi baland xalqning kelajagi ham buyuk bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
32015 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy